



Yapon Tilidagi “Idol”, “Image”, “God”, “Goddess”, “Spirit” Terminlarining Semantik Tahlili

Madumarova Dilnora Baxodir qizi

O‘zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti,
Yapon filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

Abstract: Religious terms in Japanese are mainly formed under the influence of Buddhism. Therefore, it is difficult to find a complete equivalent in expressing Islamic concepts, and semantic shift often occurs. The Japanese terms guzou - idol, zou - statue, kami - god, tamashi - spirit seem to be clear and unambiguous words at first glance. and explained. In the article, we will try to find the translation equivalent and semantic analysis of these words based on the context.

Keywords: Idol, Statue, Statue, Spirit, God, Deity, Deity, Polytheism, Worship, Semantic Analysis.

Yapon tilidagi “偶像”, “像”, “神”, “女神”, “靈” terminlarining semantik tahlili

Madumarova Dilnora Baxodir qizi

O‘zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti,
Yapon filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya : Yapon tilida diniy terminlar asosan buddizm ta’sirida shakllangan. Shu sababli, islomiy tushunchalarni ifodalashda to’liq ekvivalent topish qiyin va ko’pincha semantic siljish – ma’no o’zgarishi yuz beradi. Yapon tilidagi 「偶像」 (guzou) -but, 「像」 (zou) –haykal , 「神」 (kami) –xudo, 「靈」 (tamashi) –ruh terminlari bir qarashda aniq, bir ma’noli so’zdek ko’rinadi. Biroq matndagi mazmunga qarab ularni boshqa muqobillari bilan almashtirish, izohlash talab qilinadi. Maqolada biz ushbu so’zlarning kontekstdan kelib chiqib tarjima ekvivalentini hamda semantik tahlili qilib ko’ramiz.

Аннотация: Религиозные термины в японском языке в основном сформировались под влиянием буддизма. Поэтому трудно найти полный эквивалент для выражения исламских понятий, и часто происходит семантический сдвиг — изменение значения. Японские термины 「偶像」 (guzou) — идол, 「像」 (zou) — статуя, 「神」 (kami) — бог,



「霊」 (tamashi) — дух на первый взгляд кажутся ясными и однозначными словами. Однако, в зависимости от содержания текста, их необходимо заменить другими вариантами и объяснить. В данной статье мы попытаемся найти переводные эквиваленты и провести семантический анализ этих слов в зависимости от контекста.

Kalit so'zlar: but, sanam, haykal, ruh, xudo, iloh, mabuda, ko'p xudolilk, sig'inish, semantik tahlil.

Ключевые слова: идол, статуя, статуя, дух, бог, божество, божество, политеизм, поклонение, семантический анализ.

O'zbek tilida “mabuda, “but”, “sanam”, “iloh”, “hudo”, “ruh” tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lib ko'rinsada, ularning har biri alohida semantik maydonga ega. Mabuda va iloh umumiy tushunchalar. But va sanam moddiy va ko'rinadigan obyektlar, xudo aniq va yagona ilohni bildiradi. Ruh esa insonning ichki mohiyatiga oid tushuncha. Ushbu so'zlarni tarjima qilishda ularning nozik jihatlarini anglagan holda to'g'ri farqlay olish zarur.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Iymon” nomli kitoblarining “But va sanamlarga ibodat” to'g'risidagi quyidagi matnni yapon tiliga tarjima qilish asnosida 「偶像」 (guzou), 「像」 (zou), 「神」 (kami), 「霊」 (rei) terminlarining ekvivalentini ko'rib chiqamiz.

“Allohga shirk keltirishning turlaridan biri but va sanamlarga sig'inishdir. Sanam o'ziga sig'inuvchilar nazarida yuqori quvvatga ega bo'lib, tabiatdan ustun turadi. Sanamlar haqida turli afsonalar va rivoyatlar to'qilgan. Sanamlarning ba'zilar “urush xudosi”, ba'zilar “hosildorlik xudosi” deb nomlangan. Shuningdek, “yaxshilik yoki yomonlik xudosi”, “sevgi mabudasi”, “yomg'ir ilohi”, “tog' ruhi” kabi ko'plab “iloh”lar bor.

アッラーに対してシルク（多神崇拝）を行う一つの形は、偶像や像を崇拝することである。偶像は、偶像崇拝者の考えにおいて、特別な力を持ち、自然を超越した存在とみなされている。偶像については、さまざまな神話や伝説が作られてきた。ある偶像は「戦いの神」、またあるものは「豊穡の神」と呼ばれている。さらに、「善や悪の神」、「愛の女神」、「雨の神」、「山の霊」など、多くの「神々」が存在すると信じられている。

Xudo, Alloh, tangri, yaratgan, egam, parvardigor, o'zi so'zlari diniy qarashga ko'ra butun olamni, mavjudotlarni yaratgan, ularni boshqaruvchi oliy kuch.¹ Biroq yapon tilidagi 「神」 (kami) — “iloh”, “xudo” ko'plik ma'nosiga ega. Bir emas, ko'p xudolar nazarda tutiladi. Tabiat kuchlari, ajdodlar, o'liklar ruhi ham 「神」 (kami) bo'lishi mumkin. Bu so'zda aniq yagona xudo tushunchasi yo'q. Hatto imperator uchun “tirik xudo” sharaflı unvon sifatida ham ishlatiladi.

¹ “O'zbek sinonimlarining katta izohli lug'ati”, G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2022, 255-bet



Islomdagi yagona iloh “Alloh” tushunchasi bilan to’liq mos kelmaydi. Chunki mazmunida yakka xudolilik o’rniga ko’p xudolilik mavjud.

「偶像」 (guzou) - “but” metal, yog’och, tosh yoki boshqa materiallardan sun’iy yaratilgan sig’inish obyekti yoki budda qiyofasida yasalgan haykal. Hayratlanish yoki hurmatga sazovor bo’lgan narsalarga ham ishlatiladi. Bu so’z moddiy shakl mavjudligi va sig’inish obyekti jihatidan o’zbek tilidagi “but” ga eng yaqin ekvivalent bo’lib semantik moslik yuqori.

「像」 (zou) –haykal, sanam. Oddiy haykal, tasvir. Diniy bo’lmagan haykaltaroshlik san’atida yasalgan oddiy haykallarga nisbatan ko’proq qo’llanadi. Estetik san’at ma’nosi kuchliroq bo’lganligi sababli “sanam” so’ziga semantik moslik qisman mavjud. Shu sababdan yuqoridagi matnda keltirilgan sanam so’zini tarjima qilishda 「偶像」 (guzou) so’zidan foydalansak ancha mos tushadi. 「偶像」 (guzou) termini diniy kontekstda sig’inilovchi haykal –but, sanam so’zlari tushuniladi.

「女神」 (megami) –mabuda, ayol hudo. Ko’pincha mifologik obraz. Muayyan tashkilot ichida juda hurmatga sazovor bo’lgan ayolga nisbatan ham ishlatiladi. Semantic moslik cheklangan.

「魂」 (tamashi) –ruh, jon. Tirik mavjudotning jismoniy tanasida ongning ishini boshqaradigan ruh. Emotsional va falsafiy ma’no kuchli. Semantic moslik yuqori.

「靈」 (rei) –“ruh”, “arvoh” tashqi ruhiy mavjudot. O’liklar ruhi yoki mistika bilan bog’liq g’ayritabiiy kuch. Islomdagi “ruh” dan farqli ravishda ko’proq “arvoh” ma’nosini beradi. Semantik moslik qisman mavjud. 「魂」 (tamashi) qalb ruhiga ishora qilganligi sababli, matndagi kontekstga ko’ra “tog’ ruhi” ni 「靈」 (rei) termini bilan bergan ma’qul.

Xulosa qiladigan bo’lsak yapon tilidagi diniy terminlar bilan islom tushunchalari o’rtasidagi asosiy muammo diniy tizimlar farqi –yapon tilida ko’p hudolilik, islomda qat’iy yakka hudolilik. Ko’p xudolikka ishora qiluvchi ilohlarni 「神」 (kami), sig’inish uchun inson qo’li bilan yasalgan but, sanamlarga umumiy 「偶像」 (guzou) terminini qo’llash mumkin. Biroq ko’p hollarda to’g’ridan to’g’ri tarjima yetarli bo’lmay, izohli tarjima zarur bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf “Iymon”. –T.:”Hilol Nashr”, 2025.
2. “O’zbek sinonimlarining katta izohli lug’ati”, G’ofur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2022, 255-bet
3. <https://detail.chiebukuro.yahoo.co.jp>
4. <https://kotobank.jp>
5. <https://www.weblio.jp>